

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOSHI MOV MURODJON SOLIJONOVICH**

**BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI XALQ  
O‘YINLARI ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon-2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of  
Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**

**Xoshimov Murodjon Solijonovich**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq o‘yinlari orqali kommunikativ  
kompetentligini rivojlantirishning pedagogik usullari .....3

**Хошимов Муроджон Солиджонович**

Педагогические методы развития коммуникативной компетентности  
учащихся начальных классов посредством народных игр  
.....23

**Khoshimov Murodjon Solijonovich**

Pedagogical methods of improving the communicative competence of  
primary school students through folk games .....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....52

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOSHI MOV MURODJON SOLIJONOVICH**

**BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI XALQ  
O‘YINLARI ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon-2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9073 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon davlat universitetining veb-sayti ([www.kokandsu.uz](http://www.kokandsu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qurbonova Baxtixon Quchqarbayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Artikova Muhayyo Botiraliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat pedagogika instituti**


Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 28 " yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (373) 542-11-43; e-mail: [kokandsu@exat.uz](mailto:kokandsu@exat.uz)).


Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin ( 34 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (373) 542-11-43; e-mail: [kspi\\_info@edu.uz](mailto:kspi_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 15 " 01 kuni tarqatildi.

(2025-yil "24" dekabrda 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**N.Sh.Erkaboyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash raisi, p.f.d., professor

  
**L.Xayitov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash Ilmiy kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

  
**M.B.Kadirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda virtual muloqot ikmoniyatlarining ortib borishi sharoitida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy islohotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu jarayonda o'yinli vaziyatlarning murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida o'quv faolligi va natijadorligiga ta'siridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Ilg'or xalqaro ta'lim muassasalari tomonidan boshlang'ich ta'limda o'yinlar bolalar hayotining universal tarkibiy qismi ekanligi, pedagogik qiymati, erkinligi va ixtiyoriyligi e'tirof etilib, o'yinlar o'quvchilarning kommunikativ bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari va do'stona munosabatlarni mustahakamlash vositasi hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, bu jarayonda o'yinlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanish, turli o'yinlarning o'quv-bilish jarayoniga ta'sirini, o'quvchilarning kommunikabelligini oshirishga, ijod qilish, ma'naviy-intellektual jihatdan rivojlantirishga ta'siriga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Amerika Ritorika tarixi jamiyati, Butunjahon muloqot assotsiatsiyasi (WCA), Xalqaro kommunikativ assotsiatsiyasi (ICA), Xalqaro kommunikatsiyani o'lchash va baholash assotsiatsiyasi (AMEC), "Debat" xalqaro ta'lim assotsiatsiyasi (IDEA) kabi xalqaro ijtimoiy institutlar kommunikativlik va kommunikabellikni ilmiy asosda tadqiq etish va rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Mazkur tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim olishga adaptatsiyalash, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, sinfdoshlari va o'zgaralar bilan do'stona muloqot o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kommunikabelligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham o'quvchilarda adekvat muloqot ko'nikmalari rivojlantirish, muloqotga kirishishdagi to'siqlarni yengib o'tish layoqatini shakllantirish asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish vazifalar dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy bilim va kommunikativ ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirishga uztuvor ahamiyat qaratilmoqda. Zero, "o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish" dolzarb vazaifalardab biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish modeli va didaktik ta'minotini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi o'RQ-406-son Qonuni, 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risi"gi o'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 29-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan muhim vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishda xalq o'yinlari va didaktik o'yinlardan foydalanish muammosiga mutaxassislar alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan M.Abdullajonova, B.R.Adizov, A.Ya.Bobomurodova, N.M.Egamberdiyeva, O.Jamoldinova, G.Ibragimova, R.Ishmuhamedov, U.I.Mahkamov, M.H.Mahmudov, O.Musurmonova, D.Sharipova, Sh.Sharipov, B.Ziyomuhamedov kabilarning ishlarida bu o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, xalq o'yinlari va didaktik o'yinlar vositasida o'quvchilarda ijtimoiy-ma'naviy ko'nikmalarni rivojlantirish muammolari M.Aslanova, Sh.Galiev, R.Yuldosheva, F.Nasriddinov, M.Raximov, K.Raximkulov, X.Suyarov, G.Salimov, O.Safarov, T.Usmonxujayev, U.Doraboev, A.Sh. Dosimov, F.Xujayev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida muayyan darajada yoritilgan.

MDH olimlaridan umumiy o'rta ta'limda o'yinlarda pedagogik jarayonda foydalanish imkoniyatlari, samarali mexnizmlari va o'yinlarning kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari I.G.Abramova, R.S.Appatova, V.M.Bukatov, D.V.Elkonin, V.P.Gashkova, I.Ivakina, G.G.Kalayeva, N.G.Kravchenko, G.K.Kryukova, I.V.Kucheruk, O.L.Livshis, Ye.D.Matron, O.D.Minakov, R.M.Mironova, G.N.Nazarenkova, V.D.Ponomarev, L.A.Sajko, Ye.A.Strelkova, T.A.Volkova, M.G.Yanovskaya kabilarning ishlarida tadqiq etilgan.

Shuningdek, T.Bodrova, L.Venger, E.Goncharova, A.Fedatova, K.Igorevna, E.Kasatkina, A.Komarova, E.V.Korotaev, Y.Kolominskiy, V.Kudryasev, L.Paramonova, A.Pavlova, Y.Razenzkovoy, T.Semenova, O.Toporovalar tomonida o'quvchilarning o'yin kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etganlar.

O'yinlarning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi va boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsiyati rivojlanishidagi o'rnini o'rganish masalalari L.C.Vigotskiy, R.I.Jukovskaya, A.N.Leontev, D.B.Elkonin tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ya.L. Kolomenskiy, T.P. Avdulova, V.S.Muxina mazkur tadqiqotlarga tayangan holda o'yinlarni tashkil etish metodikasi, ularning bolalar ta'limi va tarbiyasidagi muammolarni hal qilish yo'llarini ochib berganlar. Biz ushbu tadqiqotlarni o'rganish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari kommunikativ malakalarini shakllantiruvchi vositalar orasida o'yinli faoliyat eng samarali hamda zaruriy vosita ekanligini aniqladik.

Xorijlik olimlardan A.Amutio, L.Botcheva, L.D.Breeman, F.Clemente, L.Gonzalez, L.C.Huffman, A.Koenen, N.Nicotera, R.Sears, J.L.Spilt, Theo Wubbels, van Lier, E.Vervoort, J.Shih, A.Christopher, A.Yolandalarning tadqiqotlarida o'yinlarning ijtimoiy ko'nikmalarni va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tadqiq etilgan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq TY-01. "Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari (2017-2030-yy.)" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning metokognitiv va metokommunikativ omillarini anqlashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaldagi pedagogik shart-sharoitlari xalq o'yinlariga asoslangan pedagogik jarayonni moslashtirish asosida rivojlantirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelini rivojlantirish;

xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari o'qituvchining faoliyat funksiyalarini ishlab chiqish asosida rivojlantirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, unda Farg'ona, Sirdayo va Qashqadaryo viloyatidagi maktablarning jami 608 nafar respondent-o'quvchilari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti** boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, tahliliy umumlashtirish, ekspert baholash, so'rovlar, kuzatish, test, suhbat, anketa, ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash kabi metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalq o'yinlarining kognitiv (o'rgatish, munosabatga kiritish, shakllantirish, baholash, ishonitirish kabi) metokognitiv (shakliy, tarkibiy, imkoniyatli) omillari aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaldagi pedagogik shart-sharoitlari xalq o'yinlariga asoslangan pedagogik jarayonning motivatsion, evristik, refleksiv bosqichlarida taklif etilgan interfaol ta'lim metodlarini ta'lim oluvchilarning rivojlanish vektoriga ularning individual ta'lim traektoriyasini aniqlash orqali moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli tushuntirish, hikoya, subat, kitob bilan ishlash, namoyish, tasvirlash, ekskursiya, na'muna, o'yin, rag'batlantirish kabi metodlarning xalq o'yinlariga modifikatsion tarzda loyihalash va produktogenlik darajasi intensivikasiyasini boyitish mantiqini belgilash asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning kognitiv omillari real vaqt rejimida muloqotga kirishishning so'z tanlash va qo'llash, til va nutq madaniyati kabi lingvodidaktik usullarini xalq o'yinlariga asoslangan ta'limiy-didaktik texnologiyalar tamoyillariga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni aniqlangan, uning shakl, metod va vositalari ishlab chiqilgan;

xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma nashr ettirilgan;

xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish strategiyasini belgilovchi taklif - tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoga pedagogik va psixologik, metodik yondashuv asosida xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan e'tirof etilganligi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishida yoritilgan ilmiy-metodologik, amaliy-metodik ma'lumotlarning pedagogik, psixologik, metodik, musiqa ta'limi fanlari asoslariga oid qarashlar, shuningdek, boshlang'ich ta'limga oid ilmiy izlanishlarning yetakchi g'oyalarga asoslanishi; "kompetentlik", "kommunikativ kompetentlik" tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilganligi, kommunikativ kompetensiya komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarining aniqlashtirilganligi, xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni aniqlangan, uning shakl, metod va vositalari ishlab chiqilganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari takomillashtirilganligi, xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi takomillashtirilganligi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi o'rganilgan va natijalari tahlil qilinganganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalq o'yinlarining kognitiv (o'rgatish, munosabatga kiritish, shakllantirish, baholash, ishonitirish kabi) metokognitiv (shakliy, tarkibiy, imkoniyatli) omillari aniqlashtirishga doir tavsiyalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan № 297442 sonli nashr guvohnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaldagi pedagogik shart-sharoitlari xalq o'yinlariga asoslangan pedagogik jarayonning motivatsion, evristik, refleksiv bosqichlarida taklif etilgan interfaol ta'lim metodlarini ta'lim oluvchilarning rivojlanish vektoriga ularning individual ta'lim traektoriyasini aniqlash orqali moslashtirish asosida rivojlantirish masalalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan tavsiyalar "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan № 297442 sonli nashr guvohnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning amaldagi pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishga erishilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirish modeli tushuntirish, hikoya, subat, kitob bilan ishlash, namoyish, tasvirlash, ekskursiya, na'muna, o'yin, rag'batlantirish kabi metodlarning xalq o'yinlariga modifikatsion tarzda loyihalash va produktogenlik darajasi intensifikatsiyasini boyitish mantiqini belgilash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar 2022-2023 yillarda II-4721101717-raqamli "Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi 2025-yil 02-dekabrda 1455-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari, bu boradagi o'qituvchining faoliyat funksiyalarini aniqlashtirishga erishilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning kognitiv omillari real vaqt rejimida muloqotga kirishishning so'z tanlash va qo'llash, til va nutq madaniyati kabi lingvodidaktik usullarini xalq o'yinlariga asoslangan ta'limiy-didaktik texnologiyalar tamoyillariga integratsiyalash asosida rivojlantirishga doir tavsiyalardan Yoshlar telekanali — "Bolalar jamoasi" ko'rsatuvi, Aqlvoy telekanali — "O'yinlar bilan o'rganamiz" ko'rsatuvi, "Madaniyat va Ma'rifat" — xalq o'yinlari, milliy qadriyatlar, tarbiya masalalariga oid ko'rsatuvlari, "Sport" telekanali — bolalar uchun harakatli o'yinlar va sog'lom turmush tarziga bag'ishlangan bloklarda hamda "Bolajon" telekanali — boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan o'yin-tarbiyaviy ko'rsatuvlarda eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda (2022-2024-yillar) foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2025-yil 22-yanvardagi 02-13-1874-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish kognitiv omillarini tadqiq etishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 1 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot ishining muhim natijalari yuzasidan 1 ta o'quv qo'llanma, o'zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika jurnallarida, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 147 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kommunikativ kompetentlikning mazmun-mohiyati va ilmiy-pedagogik asoslari hamda boshlanhich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning zarurati tadqiq etilgan.

“Kommunikatsiya” tushunchasi (lotincha communico – umumiy ma'noni anglatadi) juda keng bo'lib, u inson faoliyatining turli sohalarida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, menejment, huquqshunoslik, iqtisod va hokazolarda qo'llaniladi. Bugungi kunda ushbu tushunchaga nisbatan berilgan qator ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Kommunikatsiya, umumiy ma'noda, xabar, har qanday ma'lumotni uzatishdir<sup>1</sup>. Muloqot jarayoni inson va jamiyat hayotining muhim asoslaridan biri sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, muloqot jarayoni o'zini ham, uning natijasini ham anglatadi<sup>2</sup>. O'z navbatida, shaxslararo muloqot ma'lumotni bir shaxsdan boshqa insonga maqsadli ob'ektga yoki ma'lum bir guruh ob'ektlariga o'tkazish jarayonidan boshqa narsa emasligidan dalolat beradi.

Kommunikatsiya so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan “kommunikabellik” – “muomala qilishga layoqati bor” ma'nosida, “kommunikabel” – “kirishimli, dilkash” ma'nosini bildiradi, shuningdek “kommunikativ” – ya'ni “kommunikatsiyaga oid”<sup>3</sup>. Shunday ekan, kommunikativlik muloqot qiluvchi tomonlarning g'oyalari, fikrlari, bilimlari, his-tuyg'ularini aks ettiruvchi integral belgilar shakllanishining almashinuvi deb ta'kidlash mumkin<sup>4</sup>.

Kommunikativ kompetentlik borasida olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aynan kompetensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarga nimani o'rgatish va qanday o'rgatish, nimalarni shakllantirish lozimligi muhim sanaladi. Bu jarayonda ingliz tili darslari ham bundan mustasno emas. Shu nuqtai nazardan olganda, “kommunikativ kompetentlik” tushunchasini tahlil qilish biz uchun dolzarb muammodek ko'rinadi.

Z.Abdujabbarova, A.Abdiyeva, S.Sanaqulovalar “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini “muloqot ishtirokchilari tomonidan ta'limning aniq

---

<sup>1</sup> Бориснёв С.В. Социология коммуникации: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА / С.В. Бориснёв – 2003. – С. 270.

<sup>2</sup> Гальскова Н.Д. Межкультурное общение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // Иностранные языки в школе. 2004. – № 1. – С. 3–8.

<sup>3</sup> Гойхман О.Я., Наденна Т.М. Речевая коммуникация: учебник. - М.: ИНФРА-М, 2001 – С. 167.

<sup>4</sup> Социология: словарь-справочник. Т. 3. Междисциплинарные исследования. –М., 1991.

maqsadlariga qaratilgan nutq faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxsiy fazilatlar yig'indisi" deb ta'riflaydilar.

L.T. Ahmedova kommunikativ kompetensiyaga "Muloqot ishtirokchisining o'zi tomonidan qo'yilgan aniq motiv va maqsadlar bilan asoslangan turli hil harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisi" deya ta'rif beradi.

Tadqiqotchi olim N.Amirov fikricha, «bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko'plab olimlarni qiziqtirgan. Sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o'zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ hatti-harakatlarini nazariy o'rganishga e'tibor qaratilgan»<sup>5</sup>.

**Mualliflik tarifimizga ko'ra,** kommunikativ kompetentlik - bu tug'ma sifat emas, balki shaxsning ijtimoiy-kommunikativ tajribani izchil o'zlashtirishi natijasida shakllanadigan murakkab ko'nikma va faoliyatlar majmui hisoblanadi. Ushbu tajriba munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni vaziyatga mos ravishda stilistik jihatdan turlicha qo'llashda namoyon bo'ladi. Kompetentlikning shakllanishida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rollarning almashinuvi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois kommunikativ kompetentlik yangi ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot me'yorlari va cheklovlari, madaniy urf-odatlar, etiket va odob-axloq qoidalari, shuningdek, ta'lim jarayoniga xos ijtimoiy orientatsiyalarni egallashni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllanishiga to'siq bo'luvchi, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

**1. Oilaviy muhitning nosog'lomligi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllanishiga oilaviy muhitning sog'lomligi ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Bizga ma'lumki, oiladagi muhit: ota-ona va ularning o'smir bilan munosabati, oilaviy xotirjamlik, kattalarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan ishonchi va hurmati kommunikativ kompetentlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Aksincha, oiladagi kelishmovchilik, nizolar, ota-ona va kattalarning nomaqbul hatti-harakati o'smirlar xulqiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Doimiy janjal va mojaroli oilalarda tarbiyalanayotgan o'smir yoshdagi bolalarda qig'loqilik kuzatiladi. Bu esa bolalarda loqaydlik, nopisandlik, mustaqil fikrning yo'qligini shakllantirsa, ba'zilarida tortinchoqlik, moslasha olmaslik, muloqotchanlikning pasayishi zo'rayib boradi

**2. Ota-onalarda bolalar psixologiyasi, fiziologiyasi va pedagogikasiga doir bilimlarning yetishmasligi.** Afsuski, kuzatishlarimizga ko'ra ayrim ota-onalar bolalar fiziologiyasi, psixologiyasi va tarbiyasiga oid bilimlar yetishmaydi. Shu bois ular farzandlari xulqida bo'layotgan salbiy o'zgarishlar sababini anglay olishmaydi. Masalan, bolalardagi injiqlik yoki qaysarlik uning ba'zi bir kasallikka chalinganligi yoki jismoniy rivojlanishidagi muammo tufayli bo'layotgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ota-onalarning o'z farzandlari bilan

---

<sup>5</sup> Амиров Н.И. Таълим жараёнида талабалар коммуникатив компетентлигини шакллантириш. Замонавий таълим. 2020. 3.(88). – Б. 26.

kam muloqot qilishi, ularning muammolarini so'rashi va yaqin munosabat o'rnatmasligi ham ularda kommunikativlik kompetentlikni, muloqotchanlik qobiliyatlarini, faol munosabatlarga kirishuvchanlik layoqatini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

**3. Bolalarning kun tartibini to'g'ri tashkil etilmaganligi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kun tartibini to'g'ri tashkil etilmaganligi ularning xulqida va kommunikativlik layoqatida salbiy o'zgarishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki, boshlang'ich ta'limni boshlashidanoq bolalar kun tartibida albatta dam olish, ovqatlanish, o'z-o'ziga xizmat qilish, mashg'ulotlarga qatnashish, sport bilan shug'ullanish, ta'lim olish kabi yumushlar bo'ladi. Bu faoliyat turalrini to'g'ri tashkil etilmasligi yoki umuman amalga oshirilmassligi bolalarda yopiq xarakterni yuzaga keltiradi. Shuning uchun biz pedagoglar o'quvchilarni qanchalik kun tartibiga rioya qilishga o'rgatishni erta boshlasak shunchalik oldimizga qo'ygan maqsadimizga tez va oson erishamiz.

**4. Bolalarda har qanday jamoaga nisbatan adaptiv jarayonning qiyin kechishi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari bir necha marotaba adaptiv jarayonni boshdan kechiradi. Mana shu ko'nikish jarayonida ularda turli muammolar sodir bo'ladi. Ya'ni bolada loqaydlik, befaqrlik, kirishimli bo'la olmaslik, odamovilik kabi holatlar kuzatiladi. Afsuski, bu salbiy illatlar keyinchalik ularning xarakteriga singib borishi va uning har qanday jamoaga nisbatan moslashuvchanligini qiyinlashtirishi mumkin. Bunday o'quvchilarning do'stlari juda kam, hatto bo'lmasligi ham mumkin. Ular xarakterida doimiy nimadandir norozilik, o'z-o'zidan qoniqmaslik, bo'ysunmaslik, ikkilanish kabi salbiy illatlar namoyon bo'ladi.

**5. Bolalar tarbiyasiga noto'g'ri yondoshish.** Kuzatishlarga ko'ra ko'pchilik oilalarda bolalar tarbiyasiga noto'g'ri yondoshadilar. Ya'ni bunda otalarning tomonidan ko'p xollarda bolalar tarbiyasiga mutlaq mos kelmaydigan qattiqqo'llikdan foydalaniladi. Natijada bola ruhiyatida jiddiy muammolar kuzatiladi. Ya'ni kuchli qo'rquv yoki agressiya natijasida emotsional holatning buzilishi: hayajonlanish, dipressiya, xotiraning pasayishi, nutqiy muammolar va shunga o'xshash qator salbiy holatlarga olib keladi. Albatta, ruhiy holatning buzilishi o'z navbatida bolalarning jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bolalardagi qo'rquv ularning o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, mustaqil fikrlashdan cheklanish, har qanday jamoaga nisbatan moslashuvchanlikning qiyin kechishiga olib kelsa, agressiya esa ularda tajavvuzkorlik, janjalkashlik, urishqoqlik kabi illatlarni namoyon bo'lishiga olib keladi.

Xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish zaruratini quyidagicha asoslash mumkin:


**Birinchidan,** boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar asosida ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy faol sifatlariga ega bo'lishi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, unda umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, gender(erkak va ayol), sotsiotipik va individual rivojlanishi birlashadi. Ushbu farqlarning mohiyati va tabiati, jinsiy ong faqat

boshqa odamlar bilan muloqot, ijtimoiylashuv hamda tarbiya ta'sirida shakllanadi. Bu jarayonda esa xalq o'yinlarining didaktik ahamiyati yuqori sanaladi.

**Ikkinchidan**, xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik ta'limga tezroq adaptatsiyalash va intellektual faollikka erishish mumkin bo'ladi.

**Uchinchidan**, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish asosida o'quv-bilish jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun ularda aksilogik bilimlarga muhtojlik namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida ustuvor bo'lgan tamoyillar aniqlashtirildi (1-rasm).



**1-rasm. Xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ustuvor tamoyillari**

Xulosa qilganda, xalq o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish, ularda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish ularning o'quv-bilish faoliyatidagi faolligini ta'minlash bilan birga ijtimoiy sifatlarni shakllanishiga ham asos bo'ladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativlik sifatlari ularning shaxs sifatidagi ko'nikmalarining asosi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini rivojlantirish usullari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda boshlang'ich ta'limda xalq o'yinlaridan foydalanishning pedagogik mazmuni, modeli, texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlaritadqiq etilgan.

Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatini tashkil etishda o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'yinlar va o'yinlarga asoslangan o'quv mashg'ulotlari kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini berishi uchun ularni amalga oshirish jarayonida qanday vazifalarni yechish mumkinligi pedagogik jihatdan to'g'ri belgilanishi lozim. Bunday o'yinlarni tashkil etishni imkon qadar boshlang'ich sinflardan boshlash lozim. Pedagoglar hamda psixologlarning ta'kidlashicha, o'quvchining o'zi qiziqmasa, egallagan bilimlari uning hissiyotlariga ijobiy ta'sir

ko'rsatmaydi va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qilmaydi<sup>6</sup>. Shuningdek, o'quvchilar mazkur bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sinfdoshlari bilan do'stona muloqot o'rnatish olmaydi.

O'yin – o'quvchilarni bilish, ijod qilish, ma'naviy-intellektual jihatdan rivojlantirish vositasidir. O'yin yordamida o'quvchilar oldiga yangi olam ochiladi. O'yindan foydalanmay, o'quvchilarni to'laqonli rivojlantirish imkonsizdir. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zaro munosabatlar tizimini o'zlashtirib, hamkorlikka kirishadi, rivojlanadi, shaxs sifatida shakllanadi. O'yin murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida alohida qimmatga ega bo'lib, ko'plab falsafiy-madaniy, pedagogik-psixologik tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. O'quvchilar orasida muloqot o'rnatishda o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Uning murakkabligi pedagogik jarayonda o'yin faoliyatining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. O'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ularning alohida pedagogik qimmatga egaligi, erkinligi va ixtiyoriyligi e'tirof etiladi. O'yinlar amaliy yo'naltirilgan bo'lib, kafolatlangan natija olishga xizmat qilishi bilan alohida pedagogik qimmatga ega.

Katta ensiklopedik lug'atda o'yin nafaqat mahsuliy faoliyat bo'lib, uning motivi natijalarida emas, aksincha jarayonning o'zida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Bu jarayon o'ynovchilarga rohat bag'ishlaydi, undan tomoshabin zavq-shavq oladi. Shu sababli ham, u ta'limiy jarayonning samarali kechishida muhim rol o'ynaydi, o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishida, hayotda ishlash, o'quv-bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishda, psixologik tayyorlashda yordam beradi. Umuman, o'yin tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, uni bir qoida bilan ifoda etish qiyindir. Ko'pincha bu savolga javob olish uchun "Har bir odam nima uchun o'ynaydi?" degan savol qo'yilgandagina unga kengroq javob olish mumkin<sup>7</sup>.

Usmon Qoraboyevning ta'rificha, o'zbek xalq milliy o'yinlari va uning tarkibidagi harakatli o'yinlar bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, ular ijtimoiy turmushda o'ziga xos mazmunlarga egadir. Ya'ni ijtimoiy tuzumlar davrida vujudga kelgan o'yinlar mazmun va mohiyat jihatdan takomillashib borib, quyidagi yo'nalishlarga ega, ya'ni:

1. To'y marosimlari va bayramlardagi o'yinlar.
2. Oila, mahalla, ko'cha-maydonlarda o'ynalayotgan harakatli o'yinlar.
3. Yakka va juft bo'lib o'ynashlar.

Mazkur yo'nalishdagi harakatli o'yinlar mazmun jihatdan quyidagi turlarga ajratilgan:

- mehnat va ijtimoiy turmushni ifoda etuvchi o'yinlar;
- fasllarda o'ynaladigan yoki ularni aks ettiruvchi o'yinlar;
- hayvonlar, parrandalar hayotiga mansub bo'lgan o'yinlar.

---

<sup>6</sup> Sadullaev B. O'yinlar vositasida o'quvchilarda do'stona munosabatlarga asoslangan ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi//. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand.: SamDU. 2019. –B. 11.

<sup>7</sup> Yuldashev J.G., Pulatova D. Ta'limda o'yinli texnologiyalar samaradorlik omili sifatida // Zamonaviy ta'lim. 2014. № 8. –B. 36.

O'zbek xalq o'yinlari qadim zamonlarda bizning eramizgacha bo'lgan davrlarda vujudga kelgan. O'zbek xalqining an'anaviy turmushini o'rganishidan ma'lum bo'lishicha, tarixan "Podachi", "Oqsoq bo'ri va qo'ylar", "Echkilar va cho'ponlar", "Oq tuya", "Bo'ri keldi" singari qator o'zbek xalq o'yinlari kelib chiqqan. Xalqimiz orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi juda qiziqarli "Kaptaro'yini", "Chag'alak", "Yumronqoziq", "Ot o'yini" kabi raqslar keng rasmlangan. Shuningdek, o'zbeklar orasida "Karnaymi, surnay", "Nina, ip vatuguncha", "Tapir-to'pur qayrag'och", "Qovoq ekish", "Xo'rozlar jangi", "Xo'rozva tovuq", "Qoch bolam, qush keldi", "Oq terakmi-ko'k terak" kabi o'yinlarham mashhur bo'lgan.

Xalqimizning ming yillik bosib o'tgan tarixiy yo'lida, tajriba sinovlardan qayta - qayta o'tib, yaxlit va mukammal holda bizgacha yetib kelgan bolalar folklor o'yinlarining mazmuni, maqsad-mantig'i va yo'nalishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1. Mavsumiy bolalar folklor o'yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o'ynaladigan folklor o'yinlar.

2. Marosim bolalar folklor o'yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'anaviy bayramlarda o'ynaladigan o'yinlar.

3. Mehnat bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari: "Erni tobiga keltirish, haydash", "Ekin ekish", "Qovun-qovun", "O'rik qoqish", "Qovun sayli", "Tut qoqdi", "O'rik quritish", "Anor uzish", "Qulupnay sayli", "Yanchiq", "Xo'sh-xo'sh", "Churey-churey", "Xushey-xushey", "Sigir sog'di", "Tuya qaytarish", "Ot sug'orish" va boshqalar.

4. Bolalarning oilaviy-maishiy mavzudagi folklor o'yinlari: "Mehmon-mehmon", "Kelin tushirish", "Kelin-kuyov", "Ona-bola", "Ovqat pishirish", "Uy jihozlash", "Qo'g'irchoq o'yini", "Non yopish", "Er-xotin", "Alla-alla", "Beshik bezash", "Beshikka belash" va boshqalar.

5. Jismoniy harakatli bolalar folklor o'yinlari: "Quvlashmachoq", "Ziyrak", "G'oz-g'oz", "To'pni quvib yet", "Quyoning-quyoning", "Olarsan-a", "Epchil quyon", "To'ptosh", "Sanash", "Chiqadak", "Oq suyak". "Yugurish", "Zuv-zuv", "Oq terakmi, ko'k terak", "Eshak mindi", "To'p", "O'yla", "Quloq cho'zma", "Menga yetib ol", "Soqqa", "Lanka", "Mushtlashish", "Xo'rozlar jangi", "Xodaga chiqish", "Toqqa ko'tarilish", "O'yinchoqlarni olib kel", "Suv tagida turish", "Uloq", "Chovg'on", "Suzish", "Uzoqqa sakrash", "Arqonda tortilish", "Ot o'yini", "Qiz quvdi", "Poyga", "Nishonga otish", "Qilichbozlik", "Tarandozlik", "Tosh ko'tarish" va boshqalar.

6. Mantiqiy bolalar folklor o'yinlari: tez aytishlar. topishmoq topish o'yinlari, sanoqlar, aytishuvlar, savol-javoblar, o'ylab top, xotirani tiklash, chamalash va boshqalar.

7. Hayvonlar va tabiat hodisalari bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari.

8. Bolalarning ermak folklor o'yinlari.

9. Musiqa o'yinlari.

O'quvchilarda pedagogik tarbiya darslarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish, ko'p jihatdan xalq

o'yinlaridan unumli foydalana bilishga bog'liq<sup>8</sup>. Chunki harakatli o'yinlar orqali bola bir tomondan bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, uni tarbiyaga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa, o'quvchining mukammallik sari intilishining asosiy belgisidir. Bu esa, o'quvchilarda ijtimoiy munosabatlarda intizomli bo'lish, mas'uliyatni anglashlariga imkon beradi.

O'yinlar vositasida o'quvchilarning aqliy fazilatlari va ijtimoiy sifatlari rivojlanadi. O'yinda turli xil faoliyatlar mujasamlashadi, keyinchalik har bir faoliyat turi mustaqil ravishda o'z ma'nosiga ega bo'ladi. O'yin faoliyati ruhiy jarayonlarning ham shakllanishiga ta'sir qiladi. Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni ijtimoiy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ham borki, ularda turli pedagogik sifatlarni ketma-ket rivojlanishi mumkin. O'yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, dunyoqarashining kengayishi, uning katta yoshdagi odamlarning turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir.

Tadqiqotchi olim A.Abdullayevning fikricha, sog'lom avlod tarbiyasida xalq o'yinlaridan yuqori saviyada foydalanish, ularning turli ko'rinishlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga teran tatbiq qilish kutilgan pedagogik natijalarni beradi. Buning uchun:

- oila muhitida farzandlarimizni milliy xalq o'yinlariga tayyorlab borishimiz, ularga ushbu o'yinlarning foydali tomonlarini tushuntirishimiz zarur;

- mahallalarda milliy xalq o'yinlariga oid musobaqalar, bellashuvlar o'tkazilishi, ularda g'olib bo'lgan yoshlarni munosib rag'batlantirish tadbirlari amalga oshirilishi lozim. Masalan, mahallada milliy kurash bo'yicha musobaqa o'tkazilsa va g'olib o'quvchilarga "yosh polvonlar" nomi berilsa, bu ularning kelajakda xalq orasida nomdor polvonlar bo'lib yetishishida muhim omil bo'ladi;

- tuman, shaharlararo yoki viloyatlar miqyosida milliy xalq o'yinlari bellashuvlarini o'tka zish, ularda ishtirok etganlar orasidan xalqimizning bo'lajak Alpomishlari-yu Barchinoylarini aniqlash yoshlarimizni kela-jakda professional sportga yo'naltirish ishlari samaradorligini yanada oshiradi;

- mashg'ulotlarda xalq o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning xalq o'yinlariga oid nazariy va amaliy bilimlarini muntazam ravishda mustahkamlab borish darkor. Zero, sog'lom avlod tarbiyasi – yurtimiz kelajagining ishonchli kafolatidir<sup>9</sup>.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'yin bolaning o'z faoliyati ekanini, undagi tashabbuskorlikni va mustaqillikni saqlash hamda rag'batlantirish zarurligini hisobga olish kerak. Milliy xalq o'yinlari tarbiya jarayonida faoliyatning bir turi sifatida namoyon bo'ladi, binobarin, ular ijtimoiy bo'lib, mehnat va o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalq

---

<sup>8</sup> Nasriddinov F.N., Shaternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda pedagogik tarbiya va sport. –Toshkent.: O'qituvchi. 2003.–B. 102.

<sup>9</sup> Abdullaev A. Milliy xalq o'yinlari va sog'lom avlod tarbiyasi// Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017. № 9. –B. 67-70

o'yinlarining ana shu eng muhim xususiyatlari ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish ehtiyojini tug'diradi.



2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini xalq o'yinlari rivojlantirish modeli

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini xalq o'yinlari orqali rivojlantirish modeli muloqotchanlik va nutqiy ko'nikmalarni hamda axboriy ko'nikmalarni shakllantirish asosida kommunikativ sifatlar, ya'ni empatiya va refleksiyani rivojlantirishga yo'naltirish asosida amalga oshirishga qaratilgan.(2-rasm)

Modelning bilimlarni shakllantirish bloki – boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga oid bilimlar blokini yaratish, faktalogik, prosesual-texnologik va konseptual bilimlar asosida o'quvchilarda xalq o'yinlariga doir bilimlarni va ular asosida kommunikativ kompetetlikni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Keyingi blok xalq o'yinlari asosida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish ko'rsatkichlari tasniflash asosida shakllanish darajalarini aniqlashtirishdan iborat.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ko'rsatkichlari sifatida bilimlarni shakllantirish, samarali muloqot, hamkorlik va munozara olib borish ko'nikmalarini shakllantirish, muhosililik, tolerantlik va bag'rikenglik sifatlarini shakllantirish, birgalikda o'ynash, muloqot qilish va kelishuv asosida komunikabellikni shakllantirish.

O'yinlarni tashkil etishda bir qator parametrlarga tayanishga harakat qilindi. Bular o'yinlarning nomlanishi, ulardan foydalanishdan ko'zda tutiladigan maqsad, o'yinlar jarayonida foydalaniladigan materiallar, vositalar, o'yinlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan ashyolar, o'yin qoidalari kabilar. Bularning barchasi o'yin jarayoni haqida o'quvchilarda umumiy tasavvur qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, pedagogik jihatdan muhim bo'lgan didaktik imkoniyatlarga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu o'rinda ko'rsatma tariqasida: a) muayyan muloqot jarayonida; b) hamkorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan holatlarda; v) o'quvchilarning ijtimoiy hamkorlik shakllarini amalga oshirishlariga e'tibor qaratdik.

O'yinlarni tashkil etishda yuqorida ko'rsatilgan parametrlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday o'yinlar asosan o'quvchilarni kasbga yo'llash va ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida tashkil etildi. Biz hamkorlikni, birinchi navbatda, o'quvchilar orasida kommunikaivlikni tashkil etish asosida amalga oshirishga intildik. O'yinlar jarayonida, avvalo, o'quvchilarning muloqotchanlik ko'nikmalarini egallashiga e'tibor qaratdik. Buning uchun ishchan muloqot asosida qurilgan bir qator o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasiga murojaat qildik.

Mazkur texnologiyaning bir qator talablarga javob berishiga e'tibor qaratdik. Mazkur talablar: 1) o'yin jarayonida muloqot imkoniyatlarini hisobga olish; 2) o'yinlar o'quvchilarning dunyoqarashini uyg'unlashtiruvchi hodisa ekaniga e'tibor qaratish; 3) o'yinlarni tayyorlashda o'qituvchi faoliyatini tashkil etish.

O'yinlarning mazmunida quyidagi parametrlarning ifodalanishiga e'tibor berdik: o'yinning didaktik imkoniyatlarga ega bo'lishi; o'quvchilarning kommunikaiv ko'nikmalarini egallaganliklari; o'yinlarning o'quvchilarga koomunikativlik, do'stona muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini singdirishga yo'naltirilganligi; o'yinlarning kommunikativ yo'nalganligi; o'yinlarning ijtimoiy

muloqot shaklini ifodalashi; o'yinlarni o'tkazish qoidalari va ularning didaktik jihatdan jihozlanganligi kabilar.

Kommunikativlik shakllarini vujudga keltirish uchun quyidagilarga ham alohida e'tibor qaratildi: 1) o'quvchilarning mo'ljallangan muloqotlari; 2) hamkorlikning ko'zda tutilgan shakllari.

